

## Shart bo'yicha takrorlash operatorlari

1. Shunday masalalar ham uchraydiki, ularda biror amallar ketma-ketligini ma'lum bir shart bajarilgan holdagina takrorlash kerak bo'ldi. Bunda takrorlanishlar sonini avvaldan aytib bo'lmaydi. Bunday hollarda Paskalda qaysi operatordan foydalilanadi?

*Shart bo'yicha takrorlash operatorlaridan.*

2. While qanday operator?

*While - shart bo'yicha takrorlash operatori.*

3. Repeat qanday operator?

*Repeat - shart bo'yicha takrorlash operatori.*

4. While operatorining umumiyo ko'rinishi qanday?

*While <shart> Do <takrorlanish tanasi>;*

5. While <shart> Do <takrorlanish tanasi>; takrorlash operatori qanday ishlaydi?

Avval **shart** tekshiriladi. Agar uning qiymati **rost** bo'lsa, takrorlash tanasini tashkil etuvchi ko'rsatmalar ishlaydi, va yana **shart** tekshiriladi. Bu jarayon shart **yolg'on** qiymat qabul qilgunga qadar davom etadi.

6. Repeat operatorining umumiyo ko'rinishi qanday?

*Repeat <takrorlanish tanasi> Until <shart>;*

7. Repeat <takrorlanish tanasi> Until <shart>; operatori takrorlashni qanday shart bajarilguncha davom etadi?

Takrorlanish **shart rost** (TRUE) qiymat qabul qilgunga qadar bajariladi.

8. Randomize operatorining vazifasi nima?

*Random (x) funksiyasi har safar dastur ishga tushirilganda turli sonlar ketma-ketligini hosil qilishi uchun.*

9. Randomize operatori dasturda qanday qo'llaniladi?

*Randomize operatori dasturda Random funksiyasidan avval yozilishi kerak.*

10. Repeat operatorining While operatoridan farqlari qanday?

Repeat operatorining While operatoridan birinchi farqi shundaki. While operatorida shart takrorlash boshida tekshirilsa, Repeat operatorida shart **takrorlash** oxirida tekshiriladi. Shu sababli While operatorida takrorlash tanasini tashkil etuvchi ko'rsatmalar bir marta ham bajarilmasligi mumkin (shart FALSE qiymat qabul qilsa), Repeat operatorida esa ko'rsatmalar hech bo'limganda bir marta bajariladi. Ikkinci farqi While operatorida takrorlanish shart bajarilmaganda (shart FALSE qiymat qabul qilganda) yakunlansa, Repeat operatorida takrorlanish shart bajarilganda (shart TRUE qiymat qabul qilganda) yakunlanadi.